

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI LOGOPEDLARINI TANLOV
ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI LOGOPEDLARINI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari logopedlarini ishga qabul qilishga oid test sinovida foydalaniladigan test topshiriqlari mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlari logopedlarini nazariy nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalar faoliyatini tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo'llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo'naltiriladi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

logopediya fani bo'yicha 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

**Mutaxassislik fani bo'yicha tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi
va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti**

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Logopediya fanining nazariy va metodologik asoslari		
1.1. Logopediya fan sifatida.	-Logopediya faninihg maqsadi va vazifalari, tamoyillari va metodlarini bilish; - logopediyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntira olish;	5

Nutqiy rivojlanish me'yorlari. Nutq buzilishlarining tasniflari	- nutq rivojlanishining yosh me'yorlarini tavsiflash va bolaning nutq rivojlanishining yosh ko'rsatkichlariga muvofiqligini aniqlash; - nutq buzilishlarining oldini olish va tashxis qo'yish bo'yicha zamonaviy tushunchalarni bilish; - nutq buzilishlarining tasnifini bilish (klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik).	
2. Tovush talaffuzining buzilishi		
2.1. Dislaliya nutq nuqsoni	-Dislaliya nutq nuqsonining mexanizmi, simptomatikasi kelib chiqish sabablari, dislaliya shakllarini bilish; -tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni farqlash, tovushlarni nutqqa qo'yish davrlarini farqlay olish; -so'zlarni to'liq va aniq aytish, o'z nutqini nazorat qilish, mashq orqali tovushlarni mustahkamlash va tahlil qilish; -dislaliyani bartaraf etishda korreksion ishni rejalashtirish va ish uslublarini qo'llay olish.	6
3. Markaziy neyrogen nutq buzilishlari (til tizimi buzilishlari)		
3.1. Afaziya nutq nuqsoni	-Afaziya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablarini aniqlash; -afaziya turini va og'irlik darajasini aniqlay olish, nutq, eshitish, o'qish va yozishni baholay olish; -nutqni tiklash bo'yicha mashqlarni tanlay olish va o'rgata olish, bemor va uning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qura olish; -boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish, afaziyali bolaning holatini tushunish va unga motivatsiya bera olish; -afaziyani bartaraf etishda korreksion-pedagogik ishni rejalashtirish, ish natijalarini baholash.	5
3.2. Alaliya nutq nuqsoni	-Alaliya nutq nuqsoning o'rganilish tarixi; -alaliya tushunchasi, sabablari va turlarini bilish; -alaliyaga xos nutq buzilishlarini aniqlay olish, alaliyaga xos nutq buzilishlarini tushunish; -alaliyali bolalar bilan muloqot o'rnatish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlay olish; -nutq rivojlanishidagi o'zgarishlarni kuzatib,	7

	samaradorlikni baholay olish.	
4. Markaziy neyrogen nutq buzilishlari (nutqning harakat-motor buzilishlari)		
4.1. Dizartriya nutq nuqsoni	- Dizartriya nutq nuqsoni o'rganilish tarixi va etiologiyasini bilish; -dizartriya nutq nuqsoning shakllari va uning klinik belgilarini farqlay olish; -dizartriyadagi asosiy buzilishlar (nafas, ovoz, tovush talaffuzi, artikulyatsion buzilishlar); -dizartriyada nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari; -nutq nuqsonining bartaraf etishga qaratilgan logopedik korreksion ish tizimini qo'llay olish.	5
5. Nutq ritmi va ravonligi buzilishlari		
5.1. Duduqlanish nutq nuqsoni	-Duduqlanishning sabablari, turlari va belgilari haqida bilimga ega bo'lish; -duduqlanishga xos nutq buzilishlarini aniqlay olish; -duduqlanishni bartaraf etishga mo'ljallangan mashqlarni qo'llay olish (nafas, relaksatsiya, ritmik nutq) ni qo'llay olish; -duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ritmika mashg'ulotlarining ish mazmunini bilish va o'tkazish; - mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilib, yondashuvni takomillashtira olish.	6
6. Tovush talaffuzi va ovoz rezonansining buzilishi		
6.1. Rinolaliya nutq nuqsoni	-Rinolaliya tushunchasi, sabablari va turlarini bilish, rinolaliyaga xos tovush buzilishlari va burun ohangini aniqlay olish; -rinolaliyani bartaraf etishda operasiyagacha bo'lgan logopedik ishni olib boorish; -operasiyadan keyingi logopedik ishni tashkil etish; -amaliy vaziyatda to'g'ri metod va yondashuvni tanlash; - tuzatishga oid mashqlarni qo'llay olish, rinolaliyali bolaga muloqotda yordam bera olish; -davolash jarayonini kuzatib, natijalarni baholay	6

	olish.	
	Jami:	40 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish
2	Qo'llash	Bilim, tushunchalarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 2,5 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 46-son Qarori
2. M.Y.Ayupova "Logopediya", "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent-2007 y.

3. V.S. Raxmanova “Defektologiya asoslari” (Korreksion pedagogika) Toshkent “Niso Poligraf” 2017 y.
4. D.R.Madazizova “Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent 2018 y.
5. M.R.Po‘latxo‘jayeva “Defektologiyaning klinik asoslari” Toshkent 2013 y.
6. L.R.Mo‘minova, Sh.M.Amirsaidova va boshqalar “Maxsus psixologiya” “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” Toshkent 2013 y.
7. L.R.Mo‘minova, M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova L.Nurmuxamedova “Logopsixologiya” Toshkent 2007 y.
8. L.R.Mo‘minova “Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi” (Ma‘ruzalar matni) Toshkent 2012 y.
9. R.Shomahmudova, L.Mo‘minova “Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish usullari” Toshkent 2015 y.
10. A.Xusanov, Q.Vaqqosov “Logopedik massaj metodikasi”
11. L.Mo‘minova, M.Ayupova “Bolalarda dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etish texnologiyasi” Toshkent 2017 y.
12. R.Shomahmudova, X.Po‘latova “Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tizimi” Toshkent 2015 y.

Rus tilida tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Акименко, В.М. Новые логопедические технологии / В.М. Акименко. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2009.
2. Архипова, Е.Ф. Стертая дизартрия у детей / Е.Ф. Архипова. — Москва: АСТ: Астрель, 2007.
3. Волкова, Л.С. Логопедия: учебник для вузов / Л.С.Волкова. — Москва: ВЛАДОС, 1996.
4. Жукова, Н. Постановка звуков / Н. Жукова. — Москва: ГНОМ и Д, 2009.
5. Ильякова, Н.Е. Постановочные зонды в коррекции звукопроизношения / Н.Е. Ильякова. — Москва: ГНОМ и Д, 2006.
6. Понятийно-терминологический словарь логопеда / под ред. Д.И.Селиверстова. - Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1997.
7. Смирнова, И.А. Логопедия: иллюстрированный справочник / И.А.Смирнова. — Санкт-Петербург : КАРО, 2022.
8. Филичева, Т.Б. Логопедия: теория и практика / Т. Б. Филичева. — Москва: Эксмо, 2022.
9. Хитрюк, В.В. Основы дефектологии: учебное пособие / В.В. Хитрюк. - Минск: Издательство Гревцова, 2009.
10. Хрестоматия по логопедии: извлечения и тексты: учебное пособие для студентов высших и средних специальных педагогических учебных заведений: в 2 т. Т. 1 / под ред. Л.С. Волковой, В.И. Селиверстова. - Москва: ВЛАДОС, 1997.

11. Хрестоматия по логопедии: извлечения и тексты: учебное пособие для студентов высших и средних специальных педагогических учебных заведений: в 2 т. Т. 2 / под ред. Л.С. Волковой, В.И. Селиверстова. - Москва: ВЛАДОС, 1997.
12. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления (Специальная педагогика). В.А. Ковшиков СПб.: КАРО, 2018.

VIII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimni amaliyotda qo'llash va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholashga qaratiladi.